



O‘ZBEKISTONDA QOCHQINLARNI QABUL QILISH VA JOYLASHTIRISH TARTIBLARINING XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI

Razzoqova Sevinch

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda qochqinlarni qabul qilish va joylashtirish tartiblari xalqaro standartlar, xususan 1951-yilgi Qochqinlar maqomi to‘g‘risidagi Konvensiya va BMT Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligi boshqarmasi (UNHCR) talablari nuqtai nazaridan tahlil qilingan holda unda O‘zbekistonning Konvensiyani ratifikatsiya qilmaganligi va milliy himoya tizimining mavjud emasligi qochqinlarni qabul qilish va joylashtirish tartiblariga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani o‘rganiladi. Shuningdek, mavjud qonunchilik bazasi, amaldagi ro‘yxatga olish mexanizmlari, qochqinlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga ega bo‘lish imkoniyatlari va non-refoulement tamoyilining amalda qo‘llanilishi masalalari yoritilgan holda O‘zbekistonning so‘nggi yillarda fuqaroliksizlikni kamaytirish va xalqaro gumanitar hamkorlik sohasidagi yutuqlari qayd etilgan bo‘lsa-da, qochqinlarni qabul qilish va joylashtirishning tizimli huquqiy asoslari hali shakllanmaganligi asosiy muammo sifatida belgilanadi.

Kalit so‘zlar: qochqinlarni qabul qilish, joylashtirish tartiblari, 1951-yilgi Konvensiya, UNHCR, himoya tizimi.

Kirish. O‘zbekiston geosiyosiy jihatdan Markaziy Osiyoda muhim o‘rinni egallab, Afg‘oniston va Tojikistondagi mojarolar davrida qochqinlar oqimi uchun asosiy davlatlardan biri bo‘lib kelgan. Biroq, mamlakat 1951-yilgi Qochqinlar maqomi to‘g‘risidagi Konvensiyani va uning 1967-yilgi Protokolini ratifikatsiya qilmagan davlatlar qatorida qolganligini ham keltirib o‘tish zarurdir. Ushbu holat O‘zbekistonda qochqinlarni qabul qilish va joylashtirishning milliy huquqiy bazasi mavjud emasligini anglatadi. UNHCR 2025-yil fevral oyidagi faktlarida ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston qochqinlar to‘g‘risidagi Konvensiyaga a’zo emas va milliy himoya tizimiga ham ega emas. Shu sababli, mamlakatdagi majburiy ko‘chirilgan shaxslar xavfga ostida qolishdan himoyalanmagan va qonuniy ishga joylashish, sog‘liqni saqlash yoki ijtimoiy himoya kabi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan foydalanish imkoniyatiga ega emas”. Shuning uchun, maqolada O‘zbekistonda qochqinlarni qabul qilish va joylashtirish tartiblari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda tahlil qilinadi: (1) qochqin maqomini belgilashning amaldagi mexanizmlari; (2) ro‘yxatga olish va hujjatlashtirish tartiblari; (3) joylashtirish va ijtimoiy xizmatlardan



foydalanish imkoniyatlari; (4) non-refoulement tamoyiliga rioya etilishi; (5) so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar va ularning samaradorligi.

O'zbekiston milliy boshpana tizimiga ega emasligi sababli, qochqin maqomini belgilash vazifasi amalda UNHCR zimmasiga yuklangan. Xalqaro huquqshunos Guljahon Amanovanning ta'kidlashicha, "UNHCR aslida davlat bajarishi kerak bo'lgan ishni qilardi. O'sha davrda Tojikistonda mojaro, Afg'onistonda urush bo'lib, bu mamlakatlardan qochqinlar oqimi ulkan edi. O'zbekistonda qochqinlar haqida milliy qonunchilik va Konvensiyaga a'zolik bo'lmaganiga qaramay, odamlar baribir bu yerga oqib kelishardi". UNHCR tomonidan beriladigan "mandatli qochqin maqomi" Konvensiyaviy maqomdan sezilarli darajada farq qilishini ham ta'kidlash joiz. Mandatli maqom UNHCRning o'z mezonlariga mos keladigan shaxslarga beriladigan hujjat bo'lib, u "deyarli hech qanday ijtimoiy kafolat bermaydi: maktabdan yuqori ta'lim olish huquqi yo'q, to'liq tibbiy xizmat yo'q. Ammo u hech bo'lmasa bir oz xalqaro himoya berardi". Ushbu maqomning zaifligi shundaki, uning tan olinishi va amalda qo'llanilishi ko'p jihatdan mahalliy hokimiyat organlarining ixtiyoriga bog'liq. Amanovanning eslatishicha, "bir uchastkoviy bu hujjatni qabul qilardi, boshqasi yo'q. Eng yaxshi holatda qo'yib yuborishardi, eng yomoni vizani buzganlik deb rasmiylashtirib, pul talab qilishardi".

Asosiy qism. 2022-yil avgust oyida Toshkentda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz va UNHCR hamkorligida o'tkazilgan milliy seminarda qochqinlar sohasidagi qonunchilik va amaliyotning qiyosiy huquqiy tahlili natijalari taqdim etilgan. Tadqiqot "O'zbekiston Respublikasining qochqinlar bilan bog'liq qonunchiligini tahlil qiladi va uni xalqaro standartlar va mamlakatning huquqiy majburiyatlari bilan taqqoslaydi. Hisobot eng yaxshi amaliyotlar va kamchiliklarni aniqlashda hamda kelajakdagi qonunchilik o'zgarishlari va milliy himoya tizimini yanada rivojlantirish uchun tavsiyalar va keyingi chora-tadbirlarni taqdim etishga qaratilgan edi". Seminar davomida Bosh prokuratura bo'lim boshlig'i T.Umarov "chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan mahkumlarni topshirish (ekstraditsiya qilish), O'zbekiston qonunchiligi va amaliyotini 1951-yilgi Konvensiya qoidalari va boshqa tegishli xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish istiqbollari haqida ma'lumot bergan".

O'zbekistonda qochqinlarning huquqiy holati asosan "Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun 2021-yilda qabul qilingan bo'lib, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarini belgilashda xizmat qiladi. Qonunning 5-moddasida "Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq huquq va erkinliklar kafolatlanishi belgilab berilgan. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi



bo'lmagan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi yoki ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar". Biroq ushbu qonunda "qochqin" tushunchasi va ular uchun alohida huquqiy rejim belgilanmagan. Qochqinlar qonun oldida oddiy xorijiy fuqarolar sifatida ko'rilishi aytilgan. Qonunning 6-moddasida davlatda vaqtinchalik bo'lish tartibi belgilangan bo'lib, unda "xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'zlarining amaldagi sayohat hujjatlari asosida turar joy, boshqa turar-joy binolari yoki tibbiy muassasalarda vaqtincha yashashlari mumkin"ligi belgilab berilgan. Shuningdek, ular vaqtinchalik turar joy bo'yicha ro'yxatdan o'tishlari shart. Ro'yxatdan o'tish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Hozirda qochqinlar uchun eng katta muammolardan biri bu ro'yxatdan o'tish jarayonining murakkabligi va ularning noqonuniy holatga tushib qolish xavfidir. Amanovanning ta'kidlashicha, "qochqinlar bo'yicha milliy qonunchilikning yo'qligi korrupsiya manbaiga aylanishi mumkin. Chunki qochqin migrantdan farq qiladi: migrant o'zi ko'chib ketishga qaror qiladi va qaytib kelishi mumkin, qochqin esa o'z davlati himoyasidan ayriladi va hech qanday tayanchsiz qoladi. Shu sababli ko'plar haydab yubormasliklari uchun pul to'lashni afzal ko'rgan". Shuningdek, yuqorida keltirilgan qonunning 9-moddasida identifikatsiya kartasini berish tartibi belgilangan bo'lib, unda "siyosiy boshpana olgan xorijiy fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar" identifikatsiya kartasini olish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Siyosiy himoya holati mavjud bo'lsa-da, u qochqin maqomidan farqli bo'lib, ancha tor doirada qo'llaniladi va ko'pchilik qochqinlar uchun mavjud emas.

Shu o'rinda non-refoulement (majburiy qaytarishni taqiqlash) tamoyili xalqaro qochqinlar huquqining asosiy prinsipini keltirgan holatda, u 1951-yilgi Konvensiyaning 33-moddasida mustahkamlangan. O'zbekiston Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan bo'lsa-da, non-refoulement tamoyili xalqaro odat huquqi sifatida barcha davlatlar uchun majburiy hisoblanadi. Biroq UNHCR faktlar varaqasida ta'kidlanganidek, O'zbekistonda majburiy ko'chirilgan shaxslar "xavfqa qaytarilishdan himoyalangan".

Amaliyotda qochqinlarni qaytarish bilan bog'liq jiddiy xavotirlar hozirda paydo bo'lmoqda. Amanovanning eslatishicha, "1998-yilgacha O'zbekiston afg'onlarni ommaviy ravishda ortga chiqarib yuborargan". UNHCRdan qochqin maqomini olishga ulgurganlar qolish imkoniyatiga ko'proq ega bo'lardi, ammo bu ham to'liq kafolatlanmagan. Hozirgi kunda ham O'zbekistonning Konvensiyani ratifikatsiya qilmaganligi va milliy himoya tizimining yo'qligi qochqinlarning himoyasizligini davom ettirmoqda.

Tabiiyki, O'zbekistonda qochqinlarni joylashtirish bo'yicha maxsus dasturlar mavjud emas. Ular boshqa xorijiy fuqarolar bilan teng shartlarda turar



joy tanlashlari mumkin, ammo ro'yxatdan o'tish va hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq muammolar ularning qonuniy joylashish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Ta'lim sohasida qochqin bolalar uchun biroz yengillik mavjud bo'lsada, Amanovanning ma'lumotiga ko'ra, "O'zbekistondagi qochqin bolalar maktabda o'qiy olishmagan. Davlat ularni xorijiy fuqarolar sifatida ko'rgan. Ta'lim to'g'risidagi qonunga ko'ra, chet elliklar o'qishi mumkin, ammo faqat pullik asosda". UNHCR uzoq muzokaralar olib borgan va O'zbekiston Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning ishtirokchisi ekanini eslatgan. "2001-yilda, O'zbekiston Bola huquqlari qo'mitasida hisobot berganida, unga bevosita savol berilgan: nega qochqin bolalar maktabda bepul o'qimaydi? Shundan keyin hukumat qaror qabul qilishgan: maktab ta'limidan bosh tortib bo'lmaydi". Vaholangki, hozirga qadar bolalarga oliy ta'limga kirish imkoniyati esa hali ham cheklangan holligich qolmoqda. Mandatli qochqin maqomi oliy ta'lim olish huquqini bermasligini ham keltirish asoslidir. Xuddi shunday, to'liq tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati ham mavjud emas. UNHCR faktlar varaqasida O'zbekistondagi majburiy ko'chirilgan shaxslar "qonuniy ishga joylashish, sog'liqni saqlash yoki ijtimoiy himoya" huquqidan mahrum ekanligi ta'kidlangan. Ishga joylashish masalasiga keladigan bo'lsak, "Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasida "xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq huquqlarga ega va majburiyatlarni bajaradilar" deb belgilangan. Biroq qochqin maqomiga ega bo'lmagan shaxslar uchun ishga joylashish uchun tegishli ruxsatnomalarni olish qiyin, chunki ular qonuniy turish maqomiga ega emaslar.

Qochqinlar masalasida kamchiliklar mavjud bo'lsa-da, O'zbekiston fuqaroliksizlikni kamaytirish sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan. UNHCR ma'lumotlariga ko'ra, "BMTning IBelong global kampaniyasi doirasida 85 mingdan ortiq kishi fuqarolik olgan. Bu esa mamlakatga ushbu sohadagi barqaror ko'rsatkichlar bo'yicha Markaziy Osiyo yetakchilari safiga kirishiga imkon bergan". Bu yutuq O'zbekistonning fuqaroliksiz shaxslar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarga sodiqligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, O'zbekiston xalqaro gumanitar hamkorlikda faol ishtirok etib kelmoqda. 2025-yil dekabr oyida O'zbekiston delegatsiyasi Jenevada bo'lib o'tgan Qochqinlar bo'yicha global forumning taraqqiyot sharhida ishtirok etgan. Forumda "O'zbekiston majburiy ko'chirilgan shaxslar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi milliy tajribasini taqdim etgan" va "So'nggi yillarda mamlakatimiz xalqaro standartlarga muvofiq huquqiy bazani izchil mustahkamlab kelgan. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq



va erkinliklari kafolatlarini” mustahkamlab bergan. Qo‘shni Afg‘onistondagi gumanitar inqiroz sharoitida O‘zbekiston UNHCRning Termizdagi mintaqaviy gumanitar logistika markazini tashkil etishga ko‘maklashgan. Ushbu markaz “Afg‘onistonga ham, mintaqaning boshqa mamlakatlariga ham yordamning tezkor yetkazilishini ta‘minlashda yordam bergan” . Bu O‘zbekistonning qochqinlar inqirozlariga javob berishda mintaqaviy hamkor sifatidagi rolini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston 2018 va 2023-yillardagi Universal davriy tahlil (UPR) doirasida 1951-yilgi Konvensiyani ratifikatsiya qilish bo‘yicha tavsiyalarni qo‘llab-quvvatlagan . 2022-yilda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz va UNHCR tomonidan o‘tkazilgan huquqiy tadqiqot “milliy qonunchilikni 1951-yilgi Konvensiya qoidalari va boshqa tegishli xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish” zarurligini asosiy tavsiya sifatida belgilagan . UNHCR Markaziy Osiyo bo‘yicha vakili o‘rinbosari Dumitru Lipcanu “UNHCR O‘zbekistonni boshqa BMT a‘zo davlatlariga qo‘shilib, 1951-yilgi Qochqinlar Konvensiyasini va uning 1967-yilgi Protokolini ratifikatsiya qilish va amalga oshirishda qo‘llab-quvvatlashga tayyor” ekanligini bildirgan . Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz direktori Akmal Saidov esa “ushbu tadqiqot natijalari mamlakatimiz qonunchiligini takomillashtirish va inson huquqlari hamda erkinliklarining demokratik tamoyillari va huquqiy kafolatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi” deb umid bildirgan . Biroq bugungi kunga qadar Konvensiyani ratifikatsiya qilish bo‘yicha aniq siyosiy qaror qabul qilingani yo‘q. UNHCRning 2025-yil fevral oyidagi faktlarida O‘zbekiston hali ham Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan va milliy boshpana tizimiga ega emasligi qayd etilgan . Bu holat qochqinlarni qabul qilish va joylashtirish tartiblarining xalqaro standartlarga muvofiqligi masalasida jiddiy tafovutlar saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Fikr so‘nggida, O‘zbekistonda qochqinlarni qabul qilish va joylashtirish tartiblarining xalqaro standartlarga muvofiqligi tahlili quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Birinchidan, O‘zbekiston 1951-yilgi Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan va milliy boshpana tizimiga ega emas. Bu qochqinlarni qabul qilish va joylashtirishning huquqiy asoslarining yo‘qligini anglatadi. Qochqin maqomini belgilash UNHCR mandati orqali amalga oshiriladi, biroq mandatli qochqin maqomi Konvensiyaviy maqomga nisbatan sezilarli darajada kamroq huquq va ijtimoiy kafolatlar beradi.

Ikkinchidan, qochqinlarni ro‘yxatga olish va hujjatlashtirish tartiblari “Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi, ammo ushbu qonunda qochqinlar



uchun alohida huquqiy rejim belgilanmagan. Bu qochqinlarning noqonuniy holatga tushib qolish xavfini oshiradi va korrupsiyaga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, non-refoulement tamoyilining amalda qo'llanilishi xavf ostida hisoblanishi mumkin. UNHCRning ta'kidlashicha, O'zbekistondagi majburiy ko'chirilgan shaxslar xavf ostida qolishidan himoyalalmagan. Tarixiy jihatdan qochqinlarni ommaviy qaytarish holatlari mavjud bo'lgan.

To'rtinchidan, qochqinlarning ta'lim olish imkoniyati (hech bo'lmaganda maktab ta'limi darajasida) UNHCRning uzoq muzokaralaridan so'ng ta'minlangan. Biroq oliy ta'lim, to'liq tibbiy xizmat va qonuniy ishga joylashish huquqlari hali ham cheklangan.

Beshinchidan, O'zbekiston fuqaroliksizlikni kamaytirish va xalqaro gumanitar hamkorlik sohasida ijobiy qadamlarni qo'ygan mamlakatlardan biridir. 85 mingdan ortiq kishining fuqarolikka qabul qilinishi va UNHCRning Termizdagi logistika markazini qo'llab-quvvatlash mamlakatning xalqaro standartlarga loyiqligini ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston qochqinlarni qabul qilish va joylashtirish tartiblarini xalqaro standartlarga to'liq muvofiqlashtirish uchun 1951-yilgi Konvensiyani ratifikatsiya qilishi va milliy himoya tizimini yaratishi zarur. Bu nafaqat xalqaro majburiyat, balki mintaqaviy barqarorlik va inson huquqlarini himoya qilishning muhim omili bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amanova Guljahon. "O'zbekistonda qochqinlar haqida katta intervyu: nima uchun Konvensiyani ratifikatsiya qilish va qonunlarni o'zgartirish vaqti keldi". Anhor.uz, 2025. URL:
<https://anhor.uz/uzl/ichkaridan-nazar/ozbekistonda-qochqinlar-haqida-katta-intervyu/>
2. UNHCR. UNHCR Uzbekistan Factsheet, February 2025. ReliefWeb, 2025. URL:
<https://reliefweb.int/report/uzbekistan/unhcr-uzbekistan-factsheet-february-2025>
3. O'zbekiston Respublikasining "Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi Qonuni. 2021. UNHCR Rights Mapping and Analysis Platform. URL:
<https://rimap-dev.unhcr.info/node/62769>
4. O'ZA. Qochqinlar sohasidagi qonunchilik va amaliyot muhokama etildi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, 2022. URL:
https://uza.uz/oz/posts/qochqinlar-sohasidagi-qonunchilik-va-amaliyot-muhokama-etildi_402572



5. National Centre of the Republic of Uzbekistan for Human Rights. Participation of the Republic of Uzbekistan delegation in the Progress Review of the 2025 Global Refugee Forum. 2025. URL:
<http://nhrc.uz/en/news/m16953>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Falastinlik qochqinlarga yordam berish va ishlarni tashkil etish bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yaqin Sharq agentligiga gumanitar yordam ajratish to‘g‘risida”gi PQ-354-son Qarori. 2023. URL:
<https://kadrovik.uz/oz/doc?id=737057>
7. Caravan-Info. O‘zbekiston delegatsiyasi Jenevadagi Global qochqinlar forumida ishtirok etmoqda. 2024. URL:
<https://caravan-info.uz/uz/obshchestvo/820869-delegatsiya-uzbekistana-uchastvuet-v-globalnom-forume-po-bezhentsam-v-zheneve.html>
8. UNHCR Central Asia. Possibilities of acceding to the Convention relating to the Status of Refugees: NHRC and UNHCR present results of a legal study. 2022. URL:
<https://www.unhcr.org/central-asia/en/news/possibilities-acceding-convention-relating-status-refugees-nhrc-and-unhcr>
10. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi. Xalqaro onlayn-seminar bo‘lib o‘tdi. 2021. URL:
<http://pravacheloveka.uz/oz/news/sostojalsja-mezhdunarodnyj-onlajn-seminar>